

18-NOYABR - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN

www.tongyulduzi.uz

# TONG yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

2011-YIL  
14-NOYABR  
N:46  
(66847)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

## BAYROG'IM – IFTIXORIM

Vatanimiz istiqolli – bizning baxtimiz.  
Uning ramzları esa g'ururimiz, iftixorimiz.  
Shuning uchun ham Davlatimiz ramzları qabul qilingan sanalarni katta harflar bilan yozamiz,  
qalblarimiz faxrga to'lib, tantana qilamiz.

Hademay, Davlatimiz bayrog'i qabul qilingan kуни nishonlaymiz. Maktabimiz hovlisi uzra bayrog'imiz hilpiraydi, madhiyamiz yangraydi. Muqaddas bayrog'imiz haqida she'rlar o'qiyimiz, kuy go'shiqqa ularadi. Bobolarimiz uqtirganidek, davlatimiz ramzlarini murg'ak qalblarimiz to'riga jo qilib, ko'z qorachig'imizdek asraymiz. Porloq istiqbolimiz timsolli bo'lmish bunday faraxba什 kunlarni har qancha bayram qilsak, yarashadi!

Aziza AVAZOVA,  
Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi  
3-umumta'l'm maktabining  
9-sinf o'quvchisi

5-modda: O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z Davlat ramzları – Bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiiga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan.

## RHIM ABIDA

- 2011



«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining tuman, shahar hamda viloyat bosqichlari joriy yilning 4-oktabrdan 8-noyabriga qadar respublikamizning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazildi.

Shu yilning 10-11-noyabr kunlari poytaxtimizdagi O'zbekiston Davlat konservatoriyasida festivalning Toshkent shahar bosqichi bo'lib o'tdi.

Fond Forum va «Kamalak» bolalar tashkiloti hamkorligida hamda Xalq ta'limi vazirligi ko'magida o'tkazilgan festivalning shahar bosqichida 4567 nafar yosh iste'dod egalari ishtiroy etishdi.

Sakkiz yil davomida «Yangi avlod» O'zbekistonning barcha viloyatlardan minglab ishtiroychilarni birlashtirdi, ulardan 2355 nafari festival g'oliblari bo'lishdi.

Eng quvonarisi, «Yangi avlod» loyihasi sabab shu nomda Toshkent va Samargandda Bolalar ijodiyoti markazlari ochildi. Endilikda bu markazlarda bolajonlar kompyuter savodxonligi, aktyorlik mahorati, musavvirlik, kashtachilik, qo'shiq san'ati, raqs, shaxmat kabi yo'naliishlar bo'yicha saboq olmoqdalar.



**«ARUZ»**

Zahiriddin Muhammad Boburning shunday nomdag'i risolasi Navoiydan so'ng aruz ilmi taddiqini yangi bosqichga ko'tardi. Unda aruzning 20 dan ortiq bahri, 530 dan ortiq vazni haqida ma'lumot bor.

Yosh qalamkash tengdoshlarining bilan bu risolani topib o'qisangiz, bilimingiz yanada boyiydi.

## NARSHAXIY



Bolalar, bu olim haqida bilib qo'yishingiz kerak. Uning to'liq ismi – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo an-Narshaxiy. 899-yilda Buxoro shahri yaqinidagi Narshax qishlog'ida tug'ilgan. «Buxoro tarixi» asarining muallifi.

## ISKANDAR KO'PRIGIMI?

Bu ko'priklar Surxondaryodagi Bandixonsoy daryosi ustiga qurilgan me'moriy yodgorlik. Abdullaxon tomonidan taxminan 1557-98-yillarda qurilgan. Ko'priklar qurilishida ishlatalig'an g'isht va ganch tarkibi bu fikrimizni isbotlaydi.

Xo'sh, nega u Iskandar ko'prigi nomini oлган?

Ehtimol, kimlarningdir no-to'g'ri ma'lumotlariga asoslanib, shunday xato fikr chiqqan bo'lishi ham mumkin.

Har holda ko'priknинг Abdullaxon tomonidan barpo etilgani aniq!



SHAHNOZA tayyorladi

# OLTIN KUZ TASHRIFI



Kuz fasli kirib kelishi bilan tabiat oltin rangdan libos kiyib, o'zgacha tarovat baxsh etadi. Shundanmi, bu faslga atalgan she'r-u qo'shiqlar bolajonlar tilidan tushmay qoladi. Oltin kuzning erinmasdan har bir bog'chaga «tashrif buyurishi» shirintoylar uchun haqiqiy bayramga aylanmoqda.

Kichkintoylar turli sahna ko'rinishlari orqali Kuzning fazilatlarini namoyon etayotgan bir pallada davraga serjahl Yomg'ir kirib keldi. U bolajonlar bayramini buzmoqchi bo'ldi. Lekin shirintoylarning Yomg'irga ham atab qo'yan she'r va qo'shiqlari uni jahlidan tushira oldi. Momaqalidiroq va Yomg'ir ham kichkintoylar bilan birga raqsga tushib ketdilar. Ularni olqishlab turgan bog'cha mudirasi Gulchehra Nurmuhammedova, tarbiyachi Olga Medvedyeva hamda ota-onalar jajji shirintoylar qvonchiga sherik bo'ldilar.

Ana shunaqa, aziz bolajonlar! «Oftobcha»da hosil bayrami juda mazmumli o'di. Bayramga tashrif buyurgan ota-onalar farzandlaridan mammun bo'ldilar. Negaki, ular endigina olti yoshni qarshilagan bo'lsalar-da, tarbiyachi opalaridan ko'plab she'r va qo'shiqlar o'rganib oлgan ekanlar-da! Sizning maskanagingza ham Kuz tashrif buyurdimi? Siz uni qanday xursand qildingiz? Bu haqda bizga yozib yuboring. Maktublariningiz kutamiz.

Gulyuz BAHODIR qizi



## ILK QADAM 2/5

Yaqinda Chilonzor tumanidagi 179-maktabda bitiruvchilarni litsey va kollejlarga jalb qilish maqsadida, o'quvchilar va ularning ota-onalari ishtirotida tadbir bo'lib o'tdi. Unda 1-pedagogika kolleji, 1-Respublika tibbiyot kolleji va 2-yuridik kollejidan vakillar qatnashishdi. Ular bilim yurtlarida yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'qitish uslublari bilan ota-onalar va bitiruvchilarni yaqindan tanishtirishdi. Maktab direktori Gulnora Ubaydullayeva ota-onalarga farzandlarini qay yo'sinda ushbu kollej yoki akademik litseylariga joylashtirish mumkinligi haqida ma'lumot berdi.

Maktab ruhshunosini Latofat Suvonova «Qiziqishlar xaritasi» kabi turli psixologik o'yin va testlar tashkil qilib, o'quvchilarning kasbga qiziqishlarini yanada orttirmoqda.

Bu kabi sa'y-harakatlar yoshlaringizning kelajakda o'z kasbini sevadigan, yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari yo'lida ilk qadam bo'lsa, ajabmas.

## ROSSIYADA BIR KUN

Maktabimizda rus tili fani oyligi davom etmoqda.

O'qituvchilarimiz Mahfuzha Qosimova, Nargiza Marasulova, Muyassar Yo'idosheva boshchiligidagi 5-9-sinf o'quvchilar bilan «Rossiyada bir kun» nomli tadbir o'tkazdi.

O'quvchilar rus xalq qo'shiqlarini, aytishuvlarini ijro etishdi.

Rus xalqining uy-ro'zg'or anjomlari,

qo'l mehnati, kash-

talar namoyishi, ka-

ravay (non-tuzdan

tatib ko'rish maro-

simi), turli shirin-

liklar bilan bezatilgan

rus dasturxonni bar-

chada katta taassurot qoldirdi.

O'quv-

chilarning rus tilida yodlagan

she'rлari, ijro etgan qo'shiqlari

va raqslari bizda rus tiliga bo'lgan

qiziqishimizni yanada oshirdi.

Munisa ABDUSATTOROVA,  
Yunusobod tumanidagi  
274-maktabning 8-sinf o'quvchisi





Aziz o'qvechilar, oqabaringiz bor, gazetamizning 2011-yil 3-oktabr sonida O'zbekiston bolalar va oilalarini qo'llab-quvvatlash Assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar nashri «Tong yulduzi» gazetasi YUNISEF tashkiloti ko'magida respublika o'quchilar orasida O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi va Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 22 yilligiga bag'ishlangan «Bola huquqlari bolalar nighohida» tanlovi e'lon qilingan edi.

Shu oz fursatda mazkur tanlovimizga talaygina maktublar keldi. Respublikamizning turli viloyatlari -yu olis shahar va qishloqlaridan jo'natilgan maktublar mazmuni bilan tanishar ekanmiz, o'quchilarimizdagi o'z huquq va burchlarini o'rghanishga bo'lган ishtiyoqdan boshimiz ko'kka yetdi. Ularni imkon qadar sahifalarimizda yoritib bordik. Afsuski, tanlovg'a kelgan ijodiy ishlarning hammasi ham tanlov shartlariga to'la javob bera olmaydi. Ayrim o'quchilar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan bola huquqlarini, «Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya»ning boblarini aynan keltirib o'tishgan, ayrimlari juda katta hajmda ertak, hikoyalar yo'llashgan.



Anvarboy sho 'x bolakay,  
O'yingaroq, dangasa.  
Ko'ziga uyqu kelar,  
Qo'liga kitob olsa.

Bir kuni o'ynab, charchab,  
Uxlab qoldi so'rida.  
Kitoblar so'roq qilar,  
Tushida, uy to'rida.

Huquq kitobi nolir:


- Meni o'qisan qachon?  
Mugovamni chang bosib,  
Yotibman uyda hamon.

Kitobning tili biyron,  
Huquqini biladi.  
O'qigin, deb Anvardan,  
Haqqin talab qiladi...

Shu tushidan Anvarjon,  
Kattakon saboq oldi.  
Huquq, burchlarin anglab,  
Bilimdon bo'lib qoldi.

Shahnoza SHAMSIDDINOVA,  
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod ijtimoiy-iqtisodiy  
kasb-hunar kollejining 1-bosqich o'quvchisi

## BILIMDONLAR BELLASHUVI



Tanlovg'a kelgan maqola, ertak, rasm va boshqotirmalarni sinchiklab o'qib, uning shartlariga to'la javob beradigan maktublarni saralab, quyidagi o'quchilarni g'olib deb topidik:

1-o'rinn - Kumush ABDURAZZOQOVA, Toshkent viloyati, Bekobod tumani, G'alaba fuqarolar uyushmasi;

2-o'rinn - Aziza JALIROVA, Toshkent shahridagi 249-maktabning 9-sinf o'quvchisi;

3-o'rinn - Bekzod QURBONOV, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 11-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

### RAG'BATLANTIRUVCHI O'RINLAR:

1. Muyassar ABDURAZZOQOVA, Toshkent viloyati, Bekobod tumani, 46-maktabning 9-sinf o'quvchisi;

2. Sarvinoz NE'MATILLAYEVA, Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 11-maktabning 9-sinf o'quvchisi;

3. Gulmira DONIYEVA, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, 22-maktabning 9-sinf o'quvchisi;

4. Shahnoza SHAMSIDDINOVA, Sirdaryo viloyati, Mirzaobod ijtimoiy-iqtisodiy kasb-hunar kolleji o'quvchisi;

5. Salohiddin SA'DULLAYEV, Namangan viloyati, Pop tumani, 16-maktab-internat o'quvchisi;

6. Dilshoda SADRIDDINOVA, Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, 1-son ixtisoslashirtilgan Davlat umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;

7. Hafiza ASHUROVA, Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, 22-maktab o'quvchisi;

8. Malika RASULOVA, Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, 1-son ixtisoslashgan Davlat umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi;

9. Qobiljon HAYDARALIYEV, Namangan viloyati, Pop tumani, 16-maktab-internat o'quvchisi;

10. Jasurbek MARDO-NOV, Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, 1-son ixtisoslashgan Davlat umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi.

**G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!**

## SUDXO'RNING

(Ertak)

JANOSA

Qadimdamas, yaqin o'tgan zamonda biri badavlat, ikkinchisi nochorroq qo'shnilar yashagan ekan. Nochor kishi sovuqni sovuq, issiqni issiq demay tinimsiz mehnat qilarkan. Badavlat esa kun bo'y ni yuida yotib, qo'shniising topgan pulini, sen pullaringni menga berib tur, ikki oydan keyin ularni foizi bilan qaytaraman, deya aldro yo'li bilan olib qo'yarkan. Ikki oydan keyin esa qo'shniising pulini so'rasa, sendan pul oltanimni qanday isbotlaysan, deya tonib turaverarkan. Bu ham yetmagandek, uning bolalarini sho'xlik qilganlari uchun qulqlaridan cho'zib, haqorat qilarkan. O'ynayotgan koptoqlarini yorib tashlarkan. Bu holni ko'r gan mahalla ahli o'zaro kelishib, sudxo'r qo'shnini o'taga olishibdi. Qilayotgan ishi qonunga xilof ekanligini tushuntirishibdi. Bolalarga esa o'z huquq va burchlarini o'qib o'rganishlari uchun kitob sovg'a qilishibdi.

Shundan buyon bu mahallada adolat hukm sura boshlabdi.



Salohiddin SA'DULLAYEV,  
Namangan viloyati, Pop tumani, 16-maktab-internatning 7-«A» sinf o'quvchisi

## QIZLAR AKADEMIZMA

*Assalomu alaykum,  
yuzlari ol, so'zlar bol qizlarjon! Siz  
azizlar bilan oltin kuz faslining goh  
yomg'irli, gohida bulutli, goho  
quyoshli kunlarida achrashyapmiz. Har  
qanday ob-havo ham navqiron qalbingizdag  
shijoatni so'ndirmasligini tilagan holda  
dugonalaringizning dil daftarlarni  
varaqlaymiz.*

## YULDUZOYGA HAVAS QILAR

*Sahifamizning bugungi mehmoni Yulduzoy  
O'rmonova 1995-yilda Andijon viloyatining  
Xo'jaobod tumanida tug'ilgan. U bu yil Zulfiya  
nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi.*



- Men bu yuksak mukofotni o'zimnikigina emas, balki viloyatimizdag'i barcha iqtidorli qizlarimiz yutug'i deb bilaman,
- deydi hozirgi kunda TATU qoshidagi Axborot texnologiyalari litseyida tahlil olayotgan iqtidorli tengdoshingiz. Yosh ijodkorming «Gulbargdag'i shabnam», «Oq atirgulim» nomli kitoblari chop etilgan.

Unda ilk bor adabiyotga mehr uyg'otgan ustoz - maktab direktori Marvaridxon Xudoyberdiyeva bo'ladi. Ustoz yozgan she'rlarining kamchiliklarini ko'rsatib, qofiya, vazn, turoq kabi she'riyat qonun-qoidalari qunt bilan o'rgatgan. O'rganganlari asosida yozgan «Onajonim», «Vatan» nomli she'rlari tumandagi «Haqiqat» gazetasida chop etilgan.

- Fursatdan foydalabin, menga tarbiya, bilim bergan otanamga, ustozlarimga tashakkur aytaman. Menga havas qilgan ilmaga chanqoq barcha dugonalarimga ham shunday baxt nasib etishiga tilakdoshman, - deydi Yulduzoy.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

## SHE'R - MA'NAVIY KASHFIYOT

Lekin «ziyo», ya'ni «ilm» uni egallab olgan inson qalbida moddiy kuchga aylanadi. Unga zavq-shavq, ilhom ato etidi, harakatga keltiradi, yangiliklar yaratishga undaydi. Tariximiz qadim va boy. Uni Xushboq Rahim Termiziy, Buxorii kabi yuzlab piri komillarimiz mehnati va ma'naviy meroslarisiz tasavvur ham qila olmaydi. Ularning har biri bi olam. Lekin ulardan barchasini birlashtiruvchi omil borliq hamda islom olami, halollik, ezzulik, kamtarlik, ijtimoiy hayot, hayotni o'zini tushunganlar uchun, deydi shoir. Inson farzandi uchun olamda insonning insoniylig' hurmati va izzatini o'rninga qo'yib, tinch va omon yashashdan ortiqroq saodat yo'q.

Xushboq Rahimning kelajakni chamlab, moziyni aylanib to'qnash kelgani va topgani o'sha milliylik. Milliyliklar et-u tarinoq. Milliylik har qaysi mamlakat uchun, xususan, O'zbekiston uchun mezoni yo'q, tosh-u tarozisi topilmaydigan qadriyat. Bizda qadriyatlarining mazmuni ummonday teran, dunyoday dolg'ali. Xushboq Rahim ularni «Milliyat» dostonida shoirona

did va falsafiy tafakkur ko'zi bilan ko'rdi, aniq to'xtama keldi.

*Moziyini aylandim, keljak goldi,  
Uni ham ko'raman, yuragim yoniq.  
Ming yildan keyin ham mavjud tafakkur,  
Turkiston har jonnning Onasi aniq.  
Onam ham, beshik ham, qo'lbog'i milliy,  
Vatan ham muqaddas belbog'i milliy.*

Xushboq Rahimning doston-u she'riy asarları meni hamisha maftun etgan. Shoir o'zi haqida quyidagiylarni aytadi:

- Yetmishni to'ldirdim. Yetmish yil, etmish ming olam, shuncha bahor, shuncha yoz, shuncha qish-u, shuncha kuz. Lekin unda qonun va qonuniyat bitta. Ikki eshik orasi. Shu uzun va qisqa masofa inson umridir. Umr sanoqli nafas, hisob-kitobli lahzalar ketma-ketligidan iborat. Bir tutam hayot esa ham asal, ham basaldir.

1940-yilda Surxondaryo viloyatining Sho'rch'i tumanida tug'ildim. Bolaligim Kul'tepa qishlog'ida

## ONA DUOSI

Gulyora Ortiqova poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 3-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomladi.

Qizaloqligidan rassom-dizayner bo'lishni orzu qilgan Gulyora Respublika rassomlik kollejining teatr liboslarini dizayneri fakultetini imtiyozi tamomladi. Yaratgan liboslaridan ko'rgazma tashkil qilinib, yaxshi liboslar ustasi sifatida sertifikat bilan taqdirlandi. U bu bilan chegaralanib, izlanishdan to'xtab qolgani yo'q. Bu yil Gulyoraxonga omad kulib boqdi. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutiga o'qishga kirdi. Kelajakda mohir dizayner bo'lib, jazzi singiljonlariga milliy-zamonaviy uslubda go'zal liboslar yaratish niyatida.

Mustaqil diyorimizda iste'dodli yoshlarga keng imkoniyatlар yaratilmoqda. Ulardan oqilonaga foydalananoyotgan Gulyoraxonga, tinmay mehnat qilsangiz, albatta, o'z orzuqning yetishasiz, degimiz keldi. Sizni dunyodagi eng aziz insoningiz - onajoningiz duolari hamisha qo'llasin!



## HAR ISHDA ILG'OR QIZ

Tanishing: sahifamizning yana bir mehmoni Go'zal Otaxonova. Uning ham tengdoshlari qatori rasm chizishga, ingliz tiliga, to'qish-u zardo'zlikka qiziqishi katta.

Yosh bo'lishiga qaramay, Buxoro, Xiva, Samarqand shaharlarini tomosha qilgani kelgan sayyoh-larga tarjimonlik qila oldi. Go'zaloy hozirda poytaxtimizdag'i 127-umumta'l'm maktabining 9-«B» sinfiga o'qiydi. «Kamolot» va «Kamalak» tashkilotlari faoliyatlardan. G'ayratli, shijoatli,



har bir ishga jon-jahdi bilan yondashadigan bu dilbar qizimizning kelgusida bundan-da kattaroq yutuqlarga erishishi ga ishonamiz.

Mana, azizlarim, zamona-siga munosib bo'lishga intilib yashayotgan tengdoshlaringiz orzulari bilan tanishdingiz.

Xo'sh, Siz-chi, qanday yutuqlarga erishyapsiz? Bizga, albatta, yozib yuboring. Maktabularingizni kutib qolamiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi

O'OPPOV o'lgan surʼat

xayol-u o'y, qog'oz-u mo'y, qo'zi ham qo'y, ko'pkari ham to'y bilan o'tdi. Qishlog'imizdag'i 10-maktabda o'n yil o'qidim.

Buxoro Davlat pedagogika institutida o'qib yurgan talabalik yillardan qadim Buxoroning «to'rtta bozori»da kechdi. Bu bozorlarni Abdulloh Rudakiy «Buxoro» qasidasini bilan boyitdi, mening tilimga esa «Odamlar bo'limasa, bo'limas eding, Ark!» dan boshqa kalima kelmadи. Ibrohim Mashrab «to'rt bozor»da ilm savdo qildi. Mening bu bozorlardan topganim qanoat bo'ldi. Shu qanoat, sabr-toqat turmush o'rtog'im bilan mening qismatimni birga qo'shdidi. Sog'lim va salohiyatlari yetti o'g'il-qiz, yigirmaga yaqin ko'zlari chaqmoqday chaqinli nevara va evaralarimiz bor.

Toshtemir TURDIYEV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

(Davomi bor)

Bolalar va o'smirlarning sevimli nashrlari – «Tong yulduzi», «Klass» va «G'uncha»ning safida «Gulxan» jurnalni ham samarali faoliyat ko'rsatib kelayotir. Siz bu sevimli jurnalni yaxshi bilasiz. U bilan ko'p yillardan buyon qadrondosiz. Hatto ota-onalaringiz ham bir vaqtlar «Gulxan»ni o'qib voyaga yetganlarini faxr bilan tez-tez eslab turadilar. Shundaymi?...

## «GULXAN» JURNALI MEHMONIMIZ



Endi bir gapni ochiq aysak, hozir gazeta-jurnalning bozori rosa qizigan payt. Ba'zilar «ko'cha», ba'zilar «sariq» deb ataydigan xususiy nashrlar savdosi nihoyatda chaqqon. Hatto bolalar uchun ham xususiy nashrlarning paydo bo'layotgani yaxshi. Bu o'quvchilar o'rtasida ijodiy raqobat uchun maydon yaratadi. Lekin bunday xususiy nashrlarning bolalar tarbiyasiga zid, salbiy ta'sir ko'rsatadigan narsalarni, Rossiya bolalar nashrlaridan ko'chirib bosayotgan milliylikdan yiroq boshqotirmalar skanvord va komikslar chop etish bilan cheklanayotganini qanday tushunish kerak. Umuman bunday nashrlar tarbiyadan ko'ra yengil-yelpilikni, oldi-qochedini, to'g'rirog'i, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib qilmayaptimi? Har qalay jiddiy o'ylab ko'radian masala. Buni o'zingiz hal qilishingiz kerak, dono o'quvchi!..

Mustaqil mamlakatimiz bolalarini har tomonlama ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashda, ular dunyoqarashini yuksaltirishda «Tong yulduzi», «Klass», «G'uncha» qatorida «Gulxan» ham ibratlari ishlarni amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda jurnalning mazmun-mundurijasi o'zgarayotir. Yangi-yangi ruknlar paydo bo'layotir. Ayniqsa, tahririyatga kelayotgan xatlar oqimining ko'payib borayotgani bizni xursand qilayotir. Xatlar

orasida bir-biridan sermazmun she'r, hikoya, ertak va rangbarang rasmlarni ko'rib, ular orasidan eng saralarini tanlab, jurnal sahifalarida yoritayotganimiz – xalqimiz iste'dodli farzandlarga nihoyatda boyligini ko'rsatib turibdi. Bevosita Yurtboshimiz tashhabbusi bilan yosh iste'dodlarga keng yo'll

xayrli ishlar biz – jurnalistlarga ilhom beradi, zavq bag'ishlaydi.

Birgina ibratlari misol: jurnalning mazkur yildagi to'rtinch sonini ma'naviyatimiz sar-chashmasi bo'lgan kitobga bag'ishladik. Unda kitobning sehrli olami, sir-sinoati, ma'naviy kuch-qudrati va qadr-qimmati haqida maqolalar,

kelayotgan xatlar mazmunidan, telefon qo'ng'iroqlaridan ma'lum bo'ldiki, jurnalimizning kitobga bag'ishlangan maxsus soni ko'p o'quvchilarga manzur bo'lgan.

Yangi yilda yangi-yangi va bir-biridan qiziqarli rejalar belgilaganmiz. Sizga manzur bo'ladigan yangi ruknlar ochish

niyatidamiz. Xullas, yangi yildagi «Gulxan» sizlarga ko'proq ma'qul bo'ladi, degan umiddamiz, eng muhimi, sevimli jurnalning hamisha Sizning i sh o n c h l i do'stingiz, dono maslahato'yingiz, qadrondan sirdoshingiz, siz uchun doimo tarbiya minbari bo'lib qoladi.



## DILKASHIM

Kechagidek esimda. «Gulxan»da «Yashasin, quruvchilar!» ilk she'rim bosilgan edi. O'shanda respublikamiz va qo'shni respublikalardagi tengdoshlarimidan, quruvchilardan ko'plab maktublar olganman.

Hozir jurnalni varaqlarkanman, uni mazmunan boyigani, yanada qiziqarli va o'qishli bo'lganidan quvonaman. Ayniqsa, rangli ekanligi o'quvchilar tasavvurini boyitadi. Men o'qituvchi sifatida ma'naviyati yuksak bo'lishini istagan har bir o'quvchi «Gulxan» o'qishi, uni o'ziga do'st bilishi kerak, deb hisoblayman.

Abdumannon TOSHTEMIROV,  
Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi  
I-maktabning ona tilvi va adabiyot  
fan o'qituvchisi

ochilib, imkoniyatlar berilayotgani Mustaqil-ligimizning eng katta yutuqlaridan biri desak, aslo yanglishmaymiz. Ayniqsa, fan, san'at va sport sohasida yoshlarmiz erishayotgan g'alabalar, yutuqlar ham-mamizni xursand qilmoqda. Jurnalimiz ana shunday bebafo yutuq va g'alabalarni, xalqaro ko'rik-tanlovlari g'oliblarini munta-zam yoritib bermoqda. Bunday

suhbatlar beridik. Bir qator ta-niqli ijodkorlarning «Kitob haqida o'n savol» anketasiga bergen javoblarini hamon e'lon qilib boryapmiz. Tahririyatga

Ashurali JO'RAYEV,  
«Gulxan» jurnalni Bosh muharriri,  
O'zbekistonda xizmat ko'sratgan jurnalist

## MEHRINGNI MADH ETAR O'TLI QALAMIM

*Hamisha gurilla, bilim mash'alim,  
Mehringni madh etar o'tli qalamim!  
Eng yaqin do'stimsan, ardoqligim sen,  
Ilm uchqunlari porlar, «Gulxan»im!*



*Sog'inch maktublarim yetar ahyonda,  
Bir bor ko'rgim kelgan sog'inchli onda.  
Sen azim Toshkentda, men Andijonda,  
Shamollar sen tomon chorlar, «Gulxan»im!*

*Do'stim, borligingiz o'zi qanday baxt,  
Birga bo'lgan chog'lar o'tar, uchqur vaqt.  
Qalbim sog'ingani asl haqiqat,  
Xayollar, orzular yoqar, «Gulxan»im!*



*«Gulxan»im, uchqunlar alanga olsin,  
Va jajji qalblarga shuurlar solsin.  
Do'stligimiz mangu, abadiy bo'lsin,  
Hamisha qalbimda borsan, «Gulxan»im!*

Yulduzoy O'RMONOVA,  
TATU qoshidagi akademik litsey o'quvchisi





## BOG' SOG'INCHI

Bog' qarab g'arq pishgan mevalariga,  
Yuragi siqilib, xo'rsinar: eh, yoz.  
Ne bo'sa roziydim, mayli, bariga,  
Bahor qachon qaytib kelar ekan boz.

Kuzda barglariga vidolar aytar,  
Yig'laydi, xo'rsinib bo'lib qolar jum:  
«Bahor yuragimga qachon qaytadi?  
Men uni sog'indim, yomon sog'indim».

Qishda ham galbini tark etmaydi mung,  
Hushidan ketadi, yig'lashdan tolib.  
Achinmasdan, loqayd o'tadi bir yil,  
Bahor uyg'otadi, so'ng bo'sa olib.

Bahorning bag'rige otar o'zini,  
Shodlikdan entikar mehriqa qonib.  
So'ngra der: «Tark etib ketasan meni»,  
Va yana yig'laydi, battar sog'inib...

Sirojiddin IBROHIM

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

# PEPPI UZUN PAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi

### 3. Kutilmagan mehmonlar

Shu desangiz, bir kuni Peppining yolg'iz o'zi yashashini shahardagilar bilib qolishdi. Hamma hayron bo'ldi. Qanday qilib to'qqiz yashar qiz kattakon hovlida bir o'zi turadi? Unga kim ovqat pishirib beradi? Kim uni yuvib-taraydi? Uning ota-onasi bo'lmasa... Axir bu qizaloq maktabga borishi kerak, ustozlardan ta'limali shahardagi. Xullas, katta yoshdagi kishilar Peppiga yordam qo'lini cho'zmoqchi bo'dilar.

Bir kuni tushdan keyin Peppi yangi o'rtoqlarini mehmonga chaqirdi. Tommi, Annika uchchovlon mazza qilib qahva ichishga kirishdilar. Ular ayvonda kulishib o'tirishibdi. Janob Nelson ustunga o'rmalab tepaga chiqadi, keyin sirg'alib pastga tushdi. Peppining oq oti menga ham kulcha beringlar, degandek tumshug'ini cho'zdi. Havo ochiq, quyosh charaqlab turidi. Yoqimli shabada esib, gullarning xushbo'y hidini keltiradi. Hammaning dimog'i chog'. Issiq qahva bilan yumshoq kulcha uchchala bolaning zavqiga zavq qo'shadi.

Xuddi o'sha paytda desangiz, dala hovlining eshikchasi ochildi-yu, ikki mirshab kirib keldi. Peppi ularga qo'silkib, qichqirdi:

— Xush ko'rdik, janob mirshablar! Bugun odamidim kulg'an kun ekan. Rostini aytasam, yog'liq chalpak bilan shirin muzqaymoqdan keyin mirshablarni o'lguday yaxshi ko'raman! Cho'chimay kelavering!

Shunday deb Peppi mirshablarga peshvoz yurdi.

— Mana shu hovlida bir o'zi turadigan qiz senmisan? — deb so'radi birinchisi mirshab.

— Yo'q, men emasman, — dedi Peppi kulib, — men sakson yosha borgan qari kampirman. Huv shahar chetidagi xarob bir uyning uchinch'i qavatida yashayman.

Peppining hazili mirshablarga yoqmadni.

— Hoy qiz, masxarabozlikni bas qil, — dedi ikkinchi mirshab, — biz seni bolalar uyiga olib ketgani keldik. Qani, lash-lushlaringni yig'ishtir!

— Men shundoq ham bolalar uyida yashayapman, — dedi Peppi.

— Qanaqasiga bu yer bolalar uyi bo'ladi?

— Uy meniki. Bu uyda mendek bir qiz yashaydi. Demak, bu bolalar uyi, tushundilaring, janob mirshablar?

— Menga qara, qizaloq, bu joyda bir o'zing turishing yaxshi emas. Biz seni haqiqiy bolalar uyiga olib ketamiz.

U yerda senga ta'l'im-tarbiya berishadi.

— Xo'p, mayli, — dedi Peppi ko'ngan bo'lib, — aytинг-chi, u yoqqa otimni ham ola ketsam bo'ladi!

— Yo'q, mumkin emas.

— Maymunimni ham birga obketishga ruxsat bormi, yo'qni? Ana, janob Nelson ham qarab turibdi.

— Qanaqa maymun, qanaqa ot? — dedi ikkinchi mirshab, — bir o'zing borasan, vassalom!

— Unda hech qayoqqa bormayman! — cho'rt kesdi Peppi, — menga shu turgan yerim ham bo'laveradi.

— Hoy tentak qiz, tushunsang-chi, sen axir muktabda o'qishing kerak.

— Muktabda nima qilaman?

— Bilmagan narsalaringni bilib olasan. Masalan, karra jadvalini o'rganasan.

## ISHQING SARMAST QILDI, VATAN!

Senga sevgim cheksiz o'lkam,  
Bu muhabbat qanday ko'r kam!  
Qancha ta'rif qilsamda kam,  
Ishqing sarmast qildi, Vatan!

Bo'y-bastingga ko'z tegmasin,  
Chinorlaring bosh egmasin,  
Xumo qushing tark etmasin,  
Ishqing sarmast qildi, Vatan!

Tongda qarshi ol quyoshni,  
Birdek sevar keksa-yoshni,  
Hech egmagin mag'rur boshni,  
Ishqing sarmast qildi, Vatan!

Ketsin boshingdan soyalar,  
O'ssin tog'ingda lolalar,  
Kulsin bag'ringda bolalar,  
Ishqing sarmast qildi, Vatan!


Zahro O'LMASOVA,  
poytaxtimizdag 254-maktabning 9-«A»  
sinf o'quvchisi

## TARIF YO'Q BU FASLGA

Sovib bormoqda kunlar,  
Uchib ketmoqda qushlar.  
Qish ham eshik qoqmoqda,  
Qizg'in bormoqda ishlar.

Hosilin yig'ar dehqon,  
Qizil yugurib yuzga.  
Biram sirli, sehrli,  
Ta'rif yo'q oltin kuzga.

Gulbahor NORMUHAMMEDOVA,  
Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
27-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi



Xudoga shukr, mana, to'qqiz yildan buyog'iga karra jadvalisiz yashab kelayapman, bundan keyin ham yashayveraman.

Nega tushunmaysan-a?! Aytaylik, bir kuni sen katta qiz bo'lding. Shundayam xat-savoding chiqmasdan nodon bo'lib qolsang yaxshimi? Masalan, Portugaliyaning poytaxti qayer, deb so'rashsa, nima derding?

Peppi yana hazil qildi.

Vah-ha-ha! Portugaliyaning poytaxtini bilmaysanmi hal! Unda o'sha yoqqa xat yozib so'ra! Darrov javob berishadi.

Ana, ko'rningmi, oddiy narsaga ham aqling yetmaydi.

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi

# OTA ORZUSI



*Sport tanni toplaydi, musiqa dilni yuksaltiradi,  
matematika aqlni charxlaydi... Tongdoshingiz Mavzoda  
va Kushrui kamolot pillapoyalarida mana shu hikmatga  
aylangan haqiqatni dasturulmal qilib odimlamoqdalar.  
Albatta, bu yo'lda ularning ota-onalari Rustam aka va  
Zamira opaning xizmati beqiyos.*



ustasi Vladimir Gasanbekov ustozlik qiladi. Opa-singilning muvaffaqiyatlarda Tohir Ergashev, Dilshod Bozorov, Danil Safindek ustozlarning mehnati beqiyos.

Albatta, bugun sportchi qizlardan otasining ko'ksi tog'desak, yanglismaymiz. Bir vaqtlar Rustam aka ham 18 yoshida sportning boks turida sport ustaligiga nomzod bo'lgandi, so'ngra, U-shu bo'yicha musoba-

kalarda faol qatnashdi. Ammo negadir shifokorlikni tanladi. «Sport – sog'lom tur mush uchun eng muhim omil sanaladi», deydi u. Ayniqsa, U-shu sporti insonni jismonan sog'lom va ruhan tetik qiladi. Endi qizlarimning xalqaro musobaqlarda ham zafar quchishlarini xohlayman.

Darvoqe, Mavzoda va Xushruuning musiqa ilmidan mahorati haqida ham bir-ikki og'iz gap: opasingillar To'xtasin Jalilov nomidagi

**Hech yodimdan chiqmaydi.**  
**Yoz kunlarida Bo'stonliq**  
**tumanida joylashgan bolalar**  
**oromgohlarining birida hordiq**  
**chiqarayotgan Anvar ismli**  
**bolakaydan seabar olgani**  
**bordim. Yozning chillasi.**  
**Baland tog'lar etagidagi**  
**oromgohdan peshinga yaqin**  
**qaytdim. Kun issiq, hamma**  
**o'zini soya-salqina urgan.**  
**Tog'dagi tor so'qmoq yo'ldan**  
**pastga enib boryapman. Bir**  
**tomonda purviqor tog'lar.**  
**Quyosh zabtiga olgan. Tiq**  
**etgan ovoz yo'q. Har**  
**zamonda chirildoqlarning**  
**chirillashi tabiat bilan yolg'iz**  
**emasligimni eslatib turardi.**  
**Shu payt g'atali holat yuz**  
**berdi. Ishonasizmi, mening**  
**yo'shiq kuylagim keldi.**  
**Mashhur bir hofizning**  
**diltortar yo'shig'ini kuylay**  
**boshladim. Qo'shiqning**  
**tog'larga urilib qaytg'an aks-**  
**sadosi meni yanayam**  
**ilhomlantirdi. O'sha paytda**  
**dunyoda mendan zo'r hofiz**  
**yo'q edi, go'yo...**

Mumtoz qo'shiqlar ijomchisi Oybek Jalilovning qo'shiqlarini ilk bor tinglaganimda, negadir o'sha, anchcha yillar ilgarigi, tog'dagi holatim yodimga tushdi. Hofizning guldirakdek ovozi shirali va maftunkor edi.

odamlarini tezda sog'inib qolaman. Tumandagi 5-umumta'l'm mabtabida o'qib yurgan kezlarim mabtag doirasidagi tadbirdarda yo'shiq kuylardim. Musiqa ustozimiz No'mon aka Mavlakov mendagi qiziqlishi payqab, musiqa sirlarini o'rgata

6-musiqa mabtabida fortepyano yo'naliishiда tahsil oladilar. Shuningdek, poytaxtimizning 103-ixtisoslashtirilgan maxsus mabtabida matematika yo'naliishi bo'yicha tahsil olmoqdalar.

– Ular barchasiga ulguradilar, – deydi sinf rahbari Tojixon opa Sirojiddinova. – Mabtabda a'lochi, jamoat ishlariда faol. Ular «qahramon qizlarimiz» desak, mubolog'a bo'lmaydi..

Demak, bolalikdanoq hayot yo'lining zamirini yaratish kelgusidagi muvaffaqiyatlar kaliti ekanligi bor gap ekan. Cheksiz imkoniyatlar zamonida siz-u bizdan faqat izlanish va intilish talab qilinadi, xolos.



Ma'mura MADRAHIMOVA



Yosh yigitning mumtoz yo'naliishda ijod qilishi kishini quvontiradi. Shu bois, Oybekdan o'zimni qiziqtirgan savollarga javob olishga urindim:

– Agar san'atkor bo'lmaganingizda, qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?

– Menimcha, sportni tanlagan bo'lardim.

– Bolalik xotiralarni kishiga hamisha zavq bag'ishlaydi. Sizda ham shundaymi?

– Albatta. Bolaligim Qashqadaryo viloyatinining Shahrisabz tumanida o'tgan. Purviqor tog'lar bag'rida o'sganim bois, musaffo tog' havosi va u yerning tafti,

boshladilar. Musiqa mabtabida rubob va akkordeon kabi cholg'u asboblarini chalishni o'rgana boshladim. «O'zbekiston – Vatanim manim» Respublika qo'shiqlar tanlovida faxrlar II o'rinni olganimda, ota-onam va ustozlarimning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi...

– Bugungi kunda ustoz-shogird an'analariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

– To'g'ri aytasiz. Ustozlardan olgan saboqlarim Nizomiy nomidagi pedagogika universitetining musiqa fakultetini a'lo baholar bilan yakunlashimda asosiy zamin bo'ldi. Tahsildan so'ng, Muhiddin Qori

Yoqubov nomidagi akademik xalq badiiy jamoalar direktoriyasining mumtoz ansamblidagi faoliyatini ham men uchun katta mabtag bo'ldi. Tanqli hofizlar O'limas Saidjonov, Mahmud Yo'idoshev, Mahmud Tojiboyevlardan ko'p narsa o'rgandim.

– Sizning ijroingizdagи «Soginomayi svati kalon», «Segoh», «Dugoh», «Svati suvvora» kabi mumtoz qo'shiqlar o'z muxlislarini topib ulgurdи. Qo'shiq uchun matn tanlashda nimalarga e'tibor berasis?

– Men davriy matbuotni muntazam kuzatib boraman. Jumladan, «Tong yulduzi»ni ham. Goho, hali mabtag o'quvchisi bo'lgan bolalarining gazeta sahifalaridagi she'rlarini o'qib, salohiyatiga qoyil qolaman. Qo'shiq uchun she'r tanlashda ko'p narsaga e'tibor beraman. Eng birinchi galda ularni muxlislar diliiga yetib borishini hisobga olaman. Agar shunga ko'zim yetsa, ishga kirishaman.

– Gazetamiz o'quvchilariga tilaklarini...  
– Eng yaxshi narsalar ularga bo'lsin. Asosiyisi, bolajonlar ustozlariga munosib shogird bo'lib, ulardan puxta bilim olish payida bo'lsinlar...

Oybekning ota-onasi shifokor bo'lishsada, uylarida tor, doira, rubob, dutor, skripka, tanbur kabi musiqa asboblari mujassam bo'lgan ekan. Balki ana shu cholg'u asboblari uni san'atning sehrli olami sari boshlagan.

Yana hofizning yuraklarni sel qilib yuboruvchi ovozi yangrayapti...

Tinglang, Oybek kuylayapti!

**QIZIQARLI KIMYO  
FANIDAN TEST  
SAVOLLARI**

1. 250 gramm suvda kislород  
ко'пми yoki 1 kg. havodами?

- A) 1 kg. havoda;
- B) ikkisida teng;
- C) 250 gramm suvda.

2. Hamma tuzlar sho'r bo'ladi-mi?

- A) faqat osh tuzi sho'r;
- B) kaliy xlorid tuzi;
- C) ammoniy xlorid tuzi.

3. Qaysi metall eng qimmat turadi?

- A) radiy metali;
- B) oltin;
- C) ikkisi ham.

4. Avtomashinaning hamma detallari tarkibida qancha kimyoiy element ishtirok etadi?


- A) 65 ta kimyoiy element;
- B) 50 ta kimyoiy element;
- C) 70 ta kimyoiy element.

5. Dunyoda eng yengil suyuqlik nima?

- A) vodorod;
- B) suv;
- C) sut.

*Alisher ABDULLAJONOV  
tayyorladi*

How many colors can you find and circle?



*Osimxon VOSIXONOV chizgan rasmlardan foydalananildi*

**Muassislar:**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qrashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jumg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV**

Dizaynerlar:  
Fazliddin  
**SHOYODGOROV,**  
Olovuddin **ORIPOV**  
Rassom:  
**Feruz**  
**MATYOQUBOV**  
Navbatchi:  
**Gulyuz**  
**ORIFJONOVA**

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHIRIR HAY'ATI:**  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rbinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel:** 244-27-25, 244-63-08  
**Tel./faks:**  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi - 30680**  
**Buyurtma N: J 3138**

# YAXSHI DAM – O'QISHGA HAMDAM



*(Ertak)*

## MAQTANCHOQ SHAMOL VA AQLLI CHUMOLI

Bir bor ekan,  
bir yo'q ekan,  
maqtanchoq shamol bo'lgan ekan.  
U o'zini hammandan kuchli hisob-larkan.

Men dunyoda eng kuchliman! Agar jahil chiqsa, hech kim mendan qochib qutulolmaydi, – deb maqtanar ekan.

Bir kuni shamol kichkingagina chumolini ko'rib qolibdi. U inqillab-sinqillab bir dona bug'doy ko'tarib ketayotgan ekan. Shamol chumoliga shunday debdi:

Hoy tirrancha, tezda menga «Dunyoda eng kuchlisiz», deb ayt. Bo'lmasa, uchirib yuboraman.

Chumoli indamabdi. Shunchaki, jilmayib qo'yibdi. Buni ko'rib, xazonlar, qog'oz parchalari, chivin va pashshalar qo'rqib ketishibdi. Ular chumoliga aql o'rgatibdilar:

– Aytaqol, chumoli. Shamolning jahli chiqsa, yomon. Qara, biz sendan katta bo'lsak ham, unga kuchimiz yetmaydi. Sen kichkinasan, uchirib yuborishi tayin.

– Shamol rostdan ham hammadan kuchli emas-da. Undan kuchlilar ham bor...

Chumoli shunday deya o'z yo'lida davom etibdi. Bu gapni eshitgan shamol quturib ketibdi. Birpasda to's-to'polonni boshlabdi. Aqlli

chumoli  
shunday  
bo'lishini  
oldindan  
sezgan ekan.

Shuning  
uchun katta  
xarsang tosh  
yaqiniga yurib  
borgan ekan. U

apil-tapil xarsangning tagiga kirib olibdi.

Shamol xarsang toshni dumalatishga rosa urinibdi. Qo'lidan kelmabdi. Alamidan uvillab yuboribdi. Bu holni ko'rib, hamma uning ustidan kulibdi. «Kuchli bo'lsayam, bitta chumolining uyini bulolmadi», deyishibdi ular.

Shundan so'ng, shamol boshqa maqtanmaydigan bo'libdi. U o'zining bo'ron emasligini tushunib yetibdi-da.

*Solih ISMOILOV,  
V.Uspenskiy nomidagi respublika  
ixtisoslashgan musiqa akademik  
litseyi o'quvchisi*

### Ochil dasturxon



## SUTLI QUYMOQ

Sutli quyomoq tayyorlash juda oson. Buning uchun 1 litr sut, 2 dona tuxum, yarim qoshiq iste'mol sodasi, yarim cho'mich pista yog'i va un kerak bo'ladi.

Iliqroq sutga yog' qo'shib aralash-tiring. Tuxumni kosaga chaqib, yax-shilab ko'prtiring va sutga qo'shing. Bir chimdim tuz solish ham yodingizdan chiqmasin. Un solib, o'rtacha xamir qoring. 1 osh qoshiqda limon suvini qo'shsangiz, yanayam mazali bo'ladi.

Tavani avvaldan qizdirib qo'ying. So'ng, paxtani yoqqa botirib, tavaga surting. Xamirni yarim cho'michdan qyib, tavada sutli quyomoqi ikkala tarafini o'rtacha olovda oltin rangga kirkuncha qizartirib oling.

Quymoqning orasiga qovurilgan qiyima yoki shakar qo'shilgan tvorog o'rang.

### Yoqimli ishtaha!

*NARGIZA tayyorladi*

## THE LETTER R

*Ingliz tilini o'rGANAMIZ*

Can you circle all the pictures that begin with the letter R?



*Baxtijon ISROILOVA tayyorladi*



**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qrashli bo'Imagan Xalqaro xayriya jumg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV**  
Dizaynerlar:  
Fazliddin  
**SHOYODGOROV,**  
Olovuddin **ORIPOV**  
Rassom:  
**Feruz**  
**MATYOQUBOV**  
Navbatchi:  
**Gulyuz**  
**ORIFJONOVA**

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHIRIR HAY'ATI:**  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rbinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel:** 244-27-25, 244-63-08  
**Tel./faks:**  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi - 30680**  
**Buyurtma N: J 3138**